




BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Buxoro viloyatida
kichik tadbirkorlik**
2021- yil yanvar-dekabr

Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-dekarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **75,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **18,0** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrida **6418** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,3** foizga kam demakdir.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **2434** ta, sanoatda **1136** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **726** ta, yashash va ovqatlanishda **534** ta, qurilishda **407** ta, tashish va saqlashda **380** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	98,1	
Sanoat	39,0	
Qurilish	74,4	
Investitsiya	39,1	
Savdo	88,7	
Xizmatlar	66,2	
Eksport	38,3	
Import	51,3	



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

27690




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

6418

2021- yilning yanvar-dekabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022- yil 1 yanvar holatida
iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha faoliyat yuritayotgan
kichik korxona va
mikrofirmalar , % da



Yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik
korxona va mikrofirmalar soni, birlikda
Tuman va shaharlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat
yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar




Tuman va shaharlar bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buxoro shahri – 21,7%, G'ijduvon tumani-11,8%, Buxoro tumani– 7,9 %, Romitan tumani – 7,8 %, Jondor tumani – 7,7 %, Shofirkon tumani – 7,7 %, Vobkent shahri – 6,1 % Qorako'l tumani – 7,0 % hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

2434 ta

Sanoatda

1136 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
726 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
534 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga nisbatan 18,0 birlikni tashkil etdi.




Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*



2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 48,2 birlik, Buxoro sh. 28,6 birlik, Kogon tumanida 26,3 birlik, Romitan tumanida 21,8 birlik, Buxoro tumanida 19,5 birlik, Peshku tumanida 18,2 birlik, Jondor tumanida 17,1 birlik, Kogon sh. 18,5 birlik, Shofirkon tumanida 14,5 birlik, Olot tumanida 13,5 birlik, Vobkent tumanida 14,0 birlik, G'ijduvon tumanida 11,3 birlik va Qorako'l tumanida 10,6 birlikni tashkil etgan.

2021– yilning yanvar-dekabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),
2021- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra***


Eng yuqori ko'rsatkich
Qorovulbozor - 48,2 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Kogon sh.- 17,5 birlik.

Past ko'rsatkich
Qorako'l- 10,6 birlik.


2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor 48,2 birlik, Buxoro sh. – 28,6 birlik, Kogon tumanida – 26,3 birlik, Romitan tumanida-21,8 birlik, Buxoro tumanida - 19,5 birlik, Peshku tumanida-18,2 birlik, Kogon sh. - 18,5 birlik, va Jondor tumanida esa ushbu -17,1 birlikni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabrida har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi



Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da


2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **75,4** % ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-dekabrida **75,6** %). YaHMning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan izohlanadi.

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Buxoro viloyati	39,0	74,4	66,2	34,9
shaharlar:				
Buxoro sh.	56,4	84,1	44,2	30,0
Kogon sh.	37,9	25,7	77,7	42,6
tumanlar:				
Olot	41,3	78,9	88,4	28,5
Buxoro	99,7	91,1	83,2	86,4
Vobkent	99,9	100,0	59,3	90,0
G'ijduvon	47,2	96,8	84,9	79,5
Kogon	98,5	74,5	79,2	33,8
Qorako'l	62,9	91,4	81,7	60,7
Qorovulbozor	1,6	28,3	52,2	24,5
Peshku	63,1	100,0	84,6	84,1
Romitan	44,8	39,1	76,8	10,8
Jondor	100,0	100,0	83,4	72,6
Shofirkon	82,6	93,9	80,9	71,1


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 119,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 38,3 % ini tashkil etdi.




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagagi ulushi

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Vobkent tumanida -100,0%, Jondor tumanida -99,2 %, Buxoro tumanida -97,7 %, Kogon tumanida -61,6 %, Qorako'l tumanida- 62,3%, Buxoro sh. -42,3 % ni, eng past ko'rsatkich Kogon shahrida -10,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **397,9** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **51,3 %** ni tashkil etdi.




2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2021- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Shofirkon tumanida - 9,7%, Peshku tumanida - 98,8% Qorako'l tumanida - 82,4%, Buxoro tumanida - 98,5%, Jondor tumanida- 94,7 %. Eng past ko'satkich Qorovulbozor tumani - 3,3 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati


2021- yilning yanvar-dekabrida shahr va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8116,9** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro sh. (1533,6 mlrd. so'm), Kogon tumani (1099,5 mlrd. so'm), Shofirkon tumani (927,8 mlrd. so'm) , Jondor tumani (878,6 mlrd. so'm) va Gijduvon (782,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumanida (135,5 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **39,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Jondor tumani (100%), Vobkent tumani (99,9%), Buxoro tumani (99,7%), Kogon tumani (98,5%), Shofirkon tumani (82,6 %), Peshku tumani (63,1%), Qorako'l tumani (62,9 %), Buxoro sh. (56,4), G'ijduvon tumani (47,2%) va Romitan (44,8%) tumanlarida tashkil etdi.Qorovulbozor tumani (1,6%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **12752,8** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **88,7** % ni tashkil etib. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **111,3** % ga oshgani kuzatildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro sh. (3849,5 mlrd. so'm), G'ijduvon (2512,2mlrd. so'm), Buxoro (868,7mlrd. so'm), Qorovulbozor (425,9mlrd. so'm), Qorako'l (998,2 mlrd. so'm) ,Jondor (790,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2021- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha

kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5484,8** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **74,4 %** ni tashkil etdi. Oʼsish surʼati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,1 %** ni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʼsish surʼati

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro sh. (1438,8 mlrd. soʻm), Buxoro (527,8 mlrd. soʻm), Gʼijduvon (518,7 mlrd. soʻm), Jondor (430,1 mlrd. soʻm), Kogon (407,3 mlrd. soʻm), Peshku (407,1 mlrd. soʻm), Romitan (386,5 mlrd. soʻm) tumanlarda qayd etildi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8427,0** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʼrsatildi yoki koʼrsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining **66,2%** ni tashkil qildi va oʼsish surʼati 2020- yil yanvar-dekabrga oylariga nisbatan **118,5%** ni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari-ning eng koʼp xizmatlar hajmi Buxoro sh. (2097,4 mlrd. soʼm), Gʼijduvon (1398,7 mlrd. soʼm), Jondor (629,0 mlrd. soʼm), Buxoro (609,0 mlrd. soʼm), Peshku (576,9 mlrd. soʼm) Romitan (507,7 mlrd. soʼm) va Vobkent (473,5 mlrd. soʼm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

2021- yilning yanvar- dekabrida shahar va tumankar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʼsish surʼati




2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


**2021- yilning yanvar-dekabrida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da:**




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,1 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 79,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,0 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,9 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil qildi.


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021-yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da **1082** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 449 (41,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 525 (48,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 108 (10,0 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholadi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,4 % (91 ta), sanoatda – 17,7 % (192 ta), qurilishda – 10,8 % (106 ta) savdoda – 35,7 % (386ta), xizmatlar sohasida – 28,4 % (307 ta) ni tashkil etdi.

2021- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro sh. (311 ta), G'ijduvon (114 ta), Romitan (103 ta), Buxoro (92 ta), Jondor (75 ta), Vobkent (63 ta) Peshku (61 ta), Kogon (57 ta) Shofirkon (56 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2021- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning **IV** choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda, 45,1 % ni, sanoatda 44,3 % ni qurilishda 42,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 58,2% ni, xizmatlar sohasida 49,5 % ni va qurilishda 48,1% ni, tashkil etdi.

2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 52,8 % ni, sanoatda 52,6 % ni va savdoda 48,8% ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 51,7 % ni, savdo sohasida 47,9 % ni, xizmatlar sohasida 45,9% ni tashkil etdi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	48,6	42,2	9,2
Band bo'lganlar soni	29,2	63,3	7,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	42,6	49,5	7,9
Moliyaviy mablag'lari: o'z, kredit va qarz mablag'lari	37,1	55,3	7,6
Raqobat muhiti*	43,4	50,5	6,1
	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	60,4	33,2	6,4
Band bo'lganlar soni	39,7	54,4	5,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	51,4	42,7	5,9
Moliyaviy mablag'lari: o'z, kredit va qarz mablag'lari	47,7	45,7	6,6
Raqobat muhiti*	41,7	55,1	3,2

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2021- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da





Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi
bo‘limi

Tel: 65 223-81-96